

# Gidrotexnika qurilishi

## Fakultet dekanı

Hasanov Baxriddin Baratovich

texnika fanlari doktori, professor

Qabul kunlari: Chorshanba: 10:00-13:00

tel.: (+998 71) 237-22-36

E-mail: [b.hasanov@tiame.uz](mailto:b.hasanov@tiame.uz)

Veb-sayt: [www.he-tiame.uz](http://www.he-tiame.uz)

---

## Fakultet haqida

1946 yilda birinchi ayol-irrigator T.A.Kolpakova tashabbusi bilan «Kichik va oʻrta gidroelektrostansiyalarni qurish» fakulteti tashkil etilgan va keyinchalik «Gidrotexnika qurilishi», «Daryodagi gidrotexnika inshootlari va GES qurilishi» fakulteti nomlari bilan faoliyat yuritgan. Institutning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan oʻzgartirishlarga mos holda 1991 yildan “Irrigatsiya injenerlari tayyorlash oʻquv-ilmiy markazi”da va 1996 yildan “Gidromelioratsiya” fakulteti tarkibida “Suv xoʻjaligi qurilishi” mutaxassisligi boʻyicha kadrlar tayyorlangan. 2004 yildan fakultet «Irrigatsiya gidrotexnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanish» nomi bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 3 noyabrdagi “Qishloq va suv xoʻjaligi tarmoqlarini oliy maʼlumotli yuqori malakali kadrlar bilan taʼminlashni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari toʻgʻrisida” 311-sonli qaroriga asosan fakultet “Gidrotexnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanish” nomi bilan faoliyat yuritdi. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-3003-sonli qaroriga binoan Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga aylantirildi va fakultetga “Gidrotexnika qurilishi” nomi berildi. Respublikamiz va Sobiq Ittifoq Respublikalari xalq xoʻjaligi, shu jumladan suv xoʻjaligi qurilishi va energetika tizimi uchun fakultet 73 yillik faoliyati davrida 6000 ga yaqin, chet mamlakatlar uchun 100 dan ortiq malakali mutaxassislar tayyorlab berdi. Fakultet bitiruvchilari Sayano-Shushinsk, Bratsk, Toktogʻul, Nurek, Ust-Ilmsk, Chorvoq GES lari, Andijon, Tolimarjon, Hisorak suv omborlari, Tuya-Moʻyin, Toʻpolon gidrouzellari qurilishlarida ishlab-chiqarish amaliyotlarini oʻtishgan. Hozirda ular yuqorida keltirilgan obʼektlarda va respublikamizning boshqa suv xoʻjaligi hamda energetika tizimi obʼektlarida, yirik gidrotexnik inshootlarni ekspluatatsiya qilishda, havza boshqarmalarida, suv xoʻjaligi qurilishi tashkilotlarida, viloyatlar nasos stansiyalari boshqarmalarida faoliyat yuritishmoqda.

---

[Fakultet sayti www.he.tiame.uz](http://www.he.tiame.uz) [Fakultet dekanati](#) [Bakalavriatura yoʻnalishlari](#) [Magistratura mutaxassisliklari](#) [Fakultetning iqtidorli talabalari](#)